Qabul qilindi: 5-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 9-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 13-oktabr 2026-yil

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING BADIIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna
UrDU San’at kafedrasi dotsent vb.
ibadullayevanigora@gmail.com



Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarni fazoviy tasavvurini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari, talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta’limning ahamiyati va ijodiy faoliyatni tashkil etish muammolari bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy va ijodiy qobiliyatlar, tasviriy kompetentsiya, mustaqil ishlash, badiiy-pedagogik ta’lim, mustaqil badiiy va ijodiy faoliyat, rassom-o‘qituvchi.

Аннотация. В статье представлены результаты исследования по вопросам развития художественно-творческих компетенций будущих учителей изобразительного искусства, формирования и развития пространственного воображения студентов, а также значения самостоятельного образования в развитии художественных и творческих компетенций студентов и проблем организации творческой деятельности.

Ключевые слова: Художественно-творческие способности, изобразительная компетентность, самостоятельная работа, художественно-педагогическое образование, самостоятельная художественно-творческая деятельность, художник-педагог.

Dunyo ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari bugungi kunda jamiyatni intellektuallashtirish tamoyillariga tayanib, innovatsion ta’lim muhitida yoshlarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning badiiy-estetik ijodiy salohiyatini

rivojlantirishga qaratilgan xalqaro ilmiy loyihalar ko‘lamining kengayishi bilan tavsiflanmoqda. Shu bilan birga, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari investitsiya dasturlari va global texnologik taraqqiyot talablari asosida belgilab borilmoqda. Bu jarayonda mutaxassislik fanlarini o‘qitish mazmunini takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari salohiyatli ilmiy va pedagogik tarkibga, zamonaviy o‘quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik baza va o‘quv ilmiy laboratoriyalarga ega bo‘lgan ta’lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning yangi, bugungi kun talablariga to‘la javob beradigan samarali milliy modelini yaratishda muhim omil bo‘ldi.

Tasviriy san’at o‘qituvchilarining maxsus kasbiy tayyorgarligi nafaqat pedagogik mahoratni o‘rgatishdan, balki eng avvalo, mustaqil ijodiy ishlay oladigan professional rassomlarni tarbiyalashdan iboratdir. Realistik rangtasvir nazariyasi va amaliyotini malakali bilish rassom-pedagog faoliyatidagi muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi. O‘z navbatida, badiiy ta’limda o‘qitshning dastlabki kunlaridanoq talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik sharoit yaratmasdan turib, rassomlik mahoratini shakllantirish mumkin emas.

Ma’lumki, har bir talabada tevarak-atrofni ijodiy his etishni tarbiyalash, tevarak-atrofdagi voqelikni yaxlit rangli idrok etish, tasvirlangan narsaga estetik munosabatni shakllantirish ta’limning ikki shakli-auditoriyada va mustaqil ishda amalga oshiriladi.

Kundalik turmushda haqiqatdan ham, rassomlar mehnatiga har kuni, har qadamda duch kelamiz. Ammo bu ijodkorlar faoliyatining ko‘p jihatlari haqida deyarli ko‘pchilik yaxshi bilmaydi ham. Rassom, haykaltarosh, me’mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni esa shubhasiz san’at asari deymiz. Ko‘pgina insonlar, ilm vakillari, ziyolilarimiz, jumladan, o‘qituvchilar ham tasviriy san’atning tur hamda janrlari va o‘ziga xos ko‘rinishlarini ajrata olish bilimiga ega emaslar.

Ayniqsa, bu narsa tasviriy san’at ustalari va o‘qituvchilarimiz oldiga yanada

mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bularning hammasi tasviriy san’at vakillarining mehnat va ijodiy ishlari natijasidir. San’at qaysi ko‘rinishda bo‘lmasin kishilarning his-tuyg‘ulariga, ruhiyatiga ta’sir etuvchi ma’naviy go‘zallik, ezgulik sifatida namoyon bo‘ladi.

Biz “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo‘nalishi talabalarini umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishni tashkil etish usullarini chuqur o‘zlashtirishi, balki realistik rasm chizish, zamonaviy san’at masalalariga yaxshi yo‘naltirilgan bo‘lishi, shuningdek, nazariy bilimlarni, rangtasvirning turli turlari va janrlari bo‘yicha kasbiy atamalarni o‘zlashtirish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarashini shakllantirishga tayyor bo‘lish kerak degan fikrga keldik.

Biz tadqiqot ustida ishlash jarayonida talabalarga mavzu jihatidan rang-barang, kompozitsiyasi va rang-barangligi bilan qiziqarli, yuksak estetik talablarga javob beradigan, o‘quvchilarning badiiy didi va ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv-ijodiy vazifalarga muhim o‘rin ajratdik.

Badiiy ta’limdagi mustaqil ishning asosiy vazifalaridan biri bo‘lajak rassom-o‘qituvchining o‘zidagi barcha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarini bolalarga o‘rgatishga tayyorligini shakllantirish, ularning atrofdagi voqelikni ijodiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishdan iboratdir. Faqat ijodkor o‘qituvchigina bolalarni tasviriy faoliyatda ijodiy bo‘lishga o‘rgatishi mumkin.

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida rangtasvir mashg‘ulotlarda ko‘p hollarda talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirmaydigan, ularda axborot bilan ishlash va undagi asosiy mazmunni aniqlash, tahlil qilish va bir tizimga keltirish malakalari shakllanishiga ko‘maklashmaydigan ta’limning reproduktiv metodlaridan keng foydalanilmoqda. Zamonaviy mutaxassisdan esa faqat o‘z sohasining bilimdoni va shu yo‘nalishdagi axborotlarni egallaganlik bilan bir qatorda, ulardan har xil kasbiy vaziyatlar yuzaga kelganda o‘rinli foydalana bilish ham talab qilinadi.

Bularni amalga oshirish uchun mavzularni yoritishda, talabalar bajaradigan mashqlar va topshiriqlarni tuzishda hozirgacha shakllanib, eskicha ko‘rinishdagi qoliplardan voz kechib, noan’anaviy usullardan, talabalarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshiradigan uslublarni izlashimizga to‘g‘ri keladi. Rangtasvir, qalamtasvir va kompozitsiya

mashg‘ulotlarida bunday uslublardan, mashq va topshiriqlardan foydalanishimiz uchun katta imkoniyatlar mavjud. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Qalamtasvir fanini o‘qitishga doir zamonaviy talabni his etish;
- Talabaning mustaqil ishini tizimli tashkil etish;
- Qalamtasvir darsini maxsus xonalarda o‘tkazishni takomillashtirish;
- Talabalarni qalamtasvirni zamonaviy usullaridan foydalanib tasvirlashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;
- Talabalarga ijodiy kompozitsiyani tasvirlashida zamonaviy innovatsion ilg‘or texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish;
- Ko‘rgazmali qurollardan foydalanishning yangi samarali shakllarini qo‘llash;
- Qalamtasvirni perspektiva va boshqa fanlar bilan aloqada bo‘lishini ta’minlash.

Ma’lumki, har bir mamlakat va jamiyat o‘zining ta’lim- tarbiya tizimiga va o‘qitish texnologiyasiga ega bo‘ladi. Lekin bu texnologiyada albatta jahon va umuminsoniy ta’lim - tarbiya va o‘qitish texnologiyasidan ijodiy foydalaniladi va undan bahramand bo‘linadi. Shular aosida tasviriy san’at fanlari o‘zining o‘qitish sistemasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishga alohida e’tibor berilmoqda.

Jumladan, tasviriy san’at o‘quv predmetini yangi pedagogik texnologiyada o‘qitishga o‘tilmoqdaki, buning uchun tasviriy san’at o‘quv predmeti darslari bo‘yicha didaktik materiallar, ko‘rgazmalar, metodik adabiyotlarni tayyorlash va ishlab chiqarish zarurligi bugungi kunimizdagi muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik texnologiyani yaxshi tushunib olgan tasviriy san’at o‘qituvchisi har qanday holatda ham dars samaradorligini oshirishga erishadi.

Chunki, pedagogik texnologiyani juda ko‘plab printsiplari borki, ulardan dars maqsad va vazifasiga ko‘ra foydalanilishi mumkin.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyaning muammoli ta’lim texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’limni jadallashtirish, maqsadli o‘qitish, tabaqalashtirib o‘qitish kabi turlari ishlab chiqilganki, o‘qituvchini o‘zi tasviriy san’atni o‘qitish mazmuniga mos kelishiga ko‘ra tanlaydi va undan foydalanadi.

Masalan: muammoli o‘qitish texnologiyasidan tasvriy san’atni o‘qitishda foydalanib,

o‘tiladigan dars materialini to‘liq, qisqartirilgan yoki chuqurlashtirilgan mazmunda amalga oshiradi va ta’lim jarayonini integratsiyalash va tabaqalashtirib o‘qitish texnologiyasidan foydalanadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishi uchun o‘quv -tarbiya vositalarini kuchaytirish zarurki, bu maktab tasviriy san’ati darslari didaktikasi va metodikasi talablariga javob beradigan tasviriy san’at kabinetini tashkil etishi va unda zaruriy didaktik va ko‘rgazma materiallar bazasini va natura fondini bunyod etish zarurligini ifoda etadi.

Tasviriy san’atni o‘qitishning pedagogik texnologiyasi-talabalarga tasviriy san’at bo‘yicha bilim-malakalar berish, ular asosida shaxsni rivojlantirish qonun-qoidalarini o‘zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan, pedagogik faoliyatdir, desak uni didaktik jarayoni va metodik yo‘nalishi qay tarzda talqin etiladi?

Pedagogik texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o‘qitish bosqichlaridan va o‘z navbatda bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos amallardan iborat bo‘ladi. Agar biz tasviriy san’atning dars mashg‘uloti, ya’ni 80 qaqiqali vaqt ichida barcha imkoniyat, shart - sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat’iy nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi tasviriy san’at darslarining pedagogik texnologiyasi bo‘ladi.

Tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasida asosiy narsa bu kafolatlangan natija bo‘yicha imkoniyat, shart-sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo‘lib, ularni tashkil etish tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi va uning printsiplarining asosiy vazifasiga kiradi.

Chunki, tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi har bir dars mashg‘uloti uchun eng avvalo berilayotgan bilim -malakalarni ilmiy asosda bo‘lishi ta’minlanadi. Ilmiylik printsipi talabalarga rasmi chiziladigan natura, ob’ekt, mavzu, voqea- hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san’at asari bo‘yicha beriladigan har bir ma’lumotni ilmiy va fan ma’lumotlari asosida bo‘lishini ta’minlaydi.

So‘ngra beriladigan bilim-malakalar sistemali, ketma-ketlik asosda bo‘lishi ta’minlanadiki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan-qiyinga borish printsipi asosida olib boriladi. Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib,

keyingi mashg‘ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi. Bular tasviriy san’at dasturida berilgan mavzularning ketma-ketlik mazmunida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Shuningdek, tasviriy san’at bo‘yicha talabalarga beriladigan bilim-malakalar didaktikani tarbiyaviylik printsipiga amal qilingan holda olib boriladi. Chunki tasviriy san’ati o‘quv predmeti talabalarni badiiy-ahloqiy, estetik, mehnatga, o‘z xalqiga, Vataniga, ota-bobolar ijodiga katta hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oliy o‘quv yurtlarida qalamtasvir ishlashning nazariy asoslarini kreativ yondoshuv asosida amaliy jihatlarini mukammal o‘rgatish va uni o‘qitishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish hamda amalga tadbiq qilish muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Biz zamon talabidan, ta’lim tizimida rivojlangan davlatlar erishgan yutuqlardan kelib chiqib, zamonaviy talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlash borasida o‘z oldimizga yangidan-yangi maqsadlarni qo‘yishimiz zarur. Nafaqat maqsad qo‘yish, unga erishishning zamon taqozo etayotgan strategiyasi hamda bu yo‘lda amalga oshiriladigan yangilanish tamoyillarini aniqlab, doimo olg‘a intilishimiz kerak.

Shulardan kelib chiqqan holda, hozirgi zamon ta’lim modeli nimalarga qodir ekanligini aniqlash va undan qanday foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Ya’ni, bugungi kunda talabani qiziqtirish va o‘qishga rag‘batlantirish, yangi bilimlar olishga undash faqatgina unga misollar orqali ta’sir qilish zarur, masalan, bilimli insonlar o‘z hayotida nimalarga erishishi mumkinligi haqidagi haqiqiy tarixiy voqealar orqali qiziqtirishni uyg‘otish.

Adabiyotlar

1. B.B.Baymetov. Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba’zi masalalari. Academic research in educational sciences. volume 2 | issue 1 | 2021. 277-283 бетлар.

2. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, ISSUE 6.COLLECTION B JUNE 2023. 42-46 betlar.

3. Ибадуллаева,Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. Общество и инновации. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62.

4. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. Badiiy ijodni shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024)–INDIA, New Delhi: "CESS",2024.Part26.25-27b. https://interoncof.com/ index.php/india/issue/view/

5. Ibadullayeva N.E. Tasviriy san’at ta’limida talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish. International scientific and practical conference on the topic: “Priority areas for ensuring the continuity of fine art education:problems and solutions”.Vol.1 No. 01.20 november 2023. Qarshi-2023.(2023):https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/ view/206